

**“Olmaliq KMK” AJning
2024 yil I chorak yakunlari bo‘yicha
TAHLILY MA’LUMOTNOMASI**

“Olmaliq KMK” AJ boshqaruv raisi – Xursanov Abdulla Xalmuradovich.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturining eng muhim ustuvor yo‘nalishlarini bajarish davomida “Olmaliq KMK” AJ jamoasi 2024 yil I chorak yakunlari bo‘yicha quyidagi tovar mahsulotlar ishlab chiqarish ko‘rsatkichlariga erishdi:

- amaldagi narxlarda -118,8 foizga.

Mis katodini ishlab chiqarish 100,0 %, shu jumladan 100 % o‘z xom ashyosidan, metalli rux 63,9 %, shu jumladan 125,9% o‘z xom ashyosidan, 162,9 ming tonna 95,3% sulfat kislotasi, 100,6 % affinajli oltin va 101,2 % affinajli kumushni tashkil etdi.

2024 yil I chorak yakuni bo‘yicha 129,8 mln.doll. (106,9 %) miqdorida mahsulotlar eksportga sotildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining VMQ-92-son qaroriga muvofiq 2024 yilga “Olmaliq KMK” AJ ishlab chiqarish quvvatini oshirish va xom ashyoni qayta ishlash uchun 2207,6 mln. dollarlik investitsiya o‘zlashtirilishni mo‘ljallangan.

2024 yil I chorak yakuni bo‘yicha 379,1 mln. dollar (101,0%) miqdorida investitsiyalar o‘zlashtirildi, shu jumladan:

korxonaning o‘z mablag‘lari hisobidan – 48,0 mln. doll.

to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy kreditlar – 331,1 mln. doll.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 2022 yil 24 anvardagi 99-sonli “Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq va “Olmaliq KMK” AJ boshqaruv raisining 2022 yil 31 yanvardagi 94-sonli buyrug‘iga asosan “Olmaliq KMK” AJ 2024 yilda mahalliyashtirish dasturi bo‘yicha 1502,3 mlrd. so‘mlik 268 ta loyihani amalga oshirishi ko‘zda tutilgan.

2024 yil I chorak yakuni bo‘yicha 240 ta loyiha asosida mahalliyashtirilgan mahsulotlar ko‘rsatkichi 406,4 mlrd. so‘mni yoki prognozga nisbatan 109,4 foizni tashkil etdi.

2024 yilga mo‘ljallangan ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish bo‘yicha tashkiliy-texnik chora-tadbirlar kompleksi ishlab chiqilgan bo‘lib, unda ishlab chiqarish xarajatlarini 1329,5 mlrd. so‘mga yoki 10,03 foizga qisqartirish ko‘zda tutilgan.

2024 yil I chorak yakunlari bo‘yicha ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish chora-tadbirlari kompleksini amalga oshirishdan kutilayotgan natija 179,7 mlrd. so‘mni yoki 6,6 foizni tashkil etishi kutilmoqda.

Kombinatda boshqaruvni takomillashtirish, moliyaviy-iqtisodiy ahvolni mustahkamlash, debitorlik va kreditorlik to'lovlarini kamayishini ta'minlash tadbirlari amalga oshirilib kelinadi.

2024 yil 1 aprel oyi xolatiga kombinatning kutilayotgan debitorlik qarzlari 7472,3 mlrd. so'mni, kreditorlik qarzlari 1804,6 mlrd. so'mni tashkil etishi kutilmoqda.

Byudjetga yoki ish haqiga nisbatan qarzdorlik mavjud emas.

Ishchi-hodimlarni texnik tayyorlash dasturiga muvofiq kadrlarning malakasini oshirish uchun 1944 nafar, shu jumladan, ishlab chiqarishdan tashqari 357 nafar, qayta tayyorlash va ikkinchi mutaxassislikni o'zlashtirish bo'yicha 634 nafar, rahbar va mutaxassislarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha 527 nafar, shu jumladan, ishlab chiqarishdan tashqari 119 nafar kishi o'qitildi.

"Olmaliq KMK" AJ O'zbekiston Respublikasidagi 10 ta oliy o'quv yurti va Rossiya Federatsiyasining MTTU "MISiS" universiteti va filiallari bilan oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash bo'yicha hamkorlikni olib boradi.

Hozirgi kunda umumiy talabalar soni 189 tani tashkil etmoqda, bundan 11 ta talaba OTMlarning kunduzgi va 178 ta talaba sirtqi va kechki bo'limlarida ta'lim olmoqda.

Hisobot davrida jami 326 nafar, jumladan kollej bitiruvchilari 197 nafari, oliy ta'lim bitiruvchilari 96 nafar va ma'lumotsiz 33 nafar kishi ish bilan ta'minlandi.

Yuqori turuvchi tashkilotlarining topshiriqlarini o'z vaqtida bajarish, ijro intizomini nazorat qilish tizimini takomillashtirish maqsadida "Olmaliq KMK" AJ Ijro apparatida yuqori tashkilot topshiriqlarini bajarilishini nazorat qilish xizmati tashkil etilgan va ijro intizomi holatini tizimli va tanqidiy tahlil qilish tartibi belgilandi.

Yil davomida O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va hukumat qarorlarining joylardagi ijrosini o'rganish ishlari amalga oshirish mobaynida hisobot tizimini joriy etish va belgilangan muddatlarda hujjatlar ijrosi ustidan nazoratni tashkil etish ishlari olib borilmoqda. Kombinatning ish rejasiga asosan analitik hisobotlar tayyorlanib bayonnomalar tuzib borilmoqda.

Qarorlari ijrosini tanqidiy tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

2024 yil I chorak yakuni bo'yicha jami 187 ta hujjat kirim qilingan, shu jumladan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari 36 ta – (1 ta farmon, 5 ta qaror, 3 ta bayon, 27 ta topshiriq);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hujjatlari va topshiriqlari 150 ta, (5 qaror, 3 ta farmoyish, 23 ta bayon) Bosh vazir, uning o'rinbosarlari va maslahatchilari topshiriqlari – 79 ta, kotibiyat topshiriqlari – 40 ta).